



ALISHER NAVOIYNING TUYUQLARINING BADIY TAHLILI

Raxmatova Zarina
Nigmat qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich
talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy ijodida tuyuq janrining o‘ziga xosligi, tuyuqlarida tajnislardan foydalanish mahorati haqida fikr yuritiladi. O‘zining mashhur asarlarida keltirib o‘tgan tuyuqnavis ijodkorlarga bergan ta’riflari va ularning tuyuqlaridan namunalar keltiriladi. Navoiy tuyuqlari atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Tuyuq, qit’a-tuyuq, tajnis, mumtoz she’riyat, turkiy til.

Kirish. Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan siymolardan. U o‘zining adabiy ijodi bilan nafaqat turkiy tilni mumtoz she’riyat darajasiga ko‘tardi, balki uni eng nufuzli adabiy tilga aylantirdi. Navoiyning ijodida g‘azal, ruboiy, qasida, kabi janrlar bilan birqatorda tuyuq janri ham muhim o‘rin tutadi. Tuyuq – turkiy she’riyatning betakror shakllaridan bo‘lib, unda muayyan qofiyaviy shakllar uyg‘unlashgan holda ifodalanadi. Navoiy hazratlari “Mezon ul-avzon” asarida tuyuq haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “Yana turk ulus, bataxis chig‘atoy xalqi aro shoyi avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bila atab, majolisda ayturlar. Birisi “tuyug”durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa’y qilurlarkin, tajnis aytilg‘ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur”. Ya’ni, Navoiy hazratlari tuyuq turkiy xalqlar adabiyotiga xos bo‘lganligini, xalq vakillari tomonidan bazmlarda qo‘shiq qilib aytilganligini va ikki baytli bo‘lishini, tajnis asosida qurilishini, vazni ramali musaddasi maqsurdaligini qayd etib o‘tgan. Yana bir asari “Majolis un-nafois”da bu janrda ijod qilgan o‘sha davr shoirlarining tuyuqlaridan namunalar keltirgan. Ular Mirsaid (Kobuliy), Abubakr Mirzo va Sulton Iskandar Sheroziyga oid tuyug‘lardir. Asarda Mir Said – el orisida “Kobuliy” laqabi bila mashhurligini, tog‘asi ekanligini, Turk tilida ko‘proq ijod qilganini aytib o‘tgan va bu tog‘asini bu tuyug‘ini keltirgan [5:166]:

Ey muhiblar, yetsangiz gar yoza siz,
Gul adoqinda xumori yozasiz,
Gar men o‘lsam, turbatimning toshig‘a,
“Kushtai bir sho‘x erur” deb yozasiz.

Bu tuyuqda Kobuliy ishqni shu qadar ulug‘laydiki, hatto oshiq o‘limini ham yor bilan bog‘laydi. Oshiq tomonidan do‘stlaridan qabriga ishqiy haqiqatni yozishni vasiyat qilishi tuyuqning asl mazmunini ochadi.

Shuningdek Navoiy Abobakr Mirzoning ham ijod namunasini keltirib, bahodirligi va qilichni mohirlik bilan ishlatishi Chig‘atoy ulusida mashhurligini aytib o‘tgan. Shu bilan birga nazmda ham qalam tebratishini aytib, shu tuyug‘ini namuna qilib keltirgan:

*Er kerak o‘rtansa yonsa **yolina**,*

*Yora yeb yotsa otining **yolina**.*

It o‘lumi birla o‘lsa yaxshiroq,

*Er otonib dushmanig‘a **yolina**.*

Bu tuyuq haqida Navoiyning o‘zi fikr bildirar ekan ijodkor tomonidan tajnis mahorat bilan qo‘llanilganligini ta’kidlagan.

Sulton Iskandar Sheroziy tuyug‘idan namuna ketirib, uni Temuriylar avlodidanligini dabdaba hashamat jihatidan boshqa sultonlardan kam bo‘lmaganligini, taxminan yetti yoki sakkiz yil hukmronlik qilganini, bu yillar davomida uch ganch(boylik) topganligini va nazmni sevishini ta’kidlagan va quyidagi tuyug‘ini keltirib o‘tgan:

*To‘lun oyg‘a nisbat ettim **yorumi**,*

*Ul xijolatdin kam o‘ldi **yorumi**.*

Tori mo‘yungning zakotin men beray,

*Yo Misrki, yo Halabni **yo Rumi** [5:166].*

Navoiyning bu kabi ma’lumotlaridan adabiyotning eng ajoyib she’riy shakllaridan biri bo‘lgan tuyuqda shakl va talaffuz jihatdan birlikni, mazmun jihatdan turlicha so‘zlarni qo‘llay olgan va janr rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkorlar ko‘pligini bilishimiz mumkin.

Buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning “Badoyi ul-vasat” devonida 13 ta tuyug‘i keltirilgan. Bu tuyuqlarning faqat ikkitasida qit’a-tuyuqqa xos xususiyat saqlangan, qolgan tuyuqlar esa “a-a-b-a” qofiyalanish tartibiga ega. E’tibor tortadigan bir masala borki, ya’ni shoirning qit’a va ruboiylari tuyuqlariga nisbatan ancha ko‘p. Lekin tuyuqlarining soni oz bo‘lishiga qaramasdan go‘zal tajnislar orqali berilgan ma’no anchayin katta. Tuyuqlari ichida tajnissizlari umuman uchratmaymiz. Bu asarda keltirilgan birinchi tuyuq:

*Yo rab, ul shahdu shakar, **yo labdurur**,*

*Yo magar shahdu shakar **yolabdurur**.*

Jonima payvasta novak otqali

*G‘amza o‘qin qoshig‘a **yolabdurur**.*

Mashuqa go‘zalligini vasf etgan bu tuyuqning birinchi misrasida shoir go‘zalning labiga e’tibor tortdi va oshiqning hayajonli holatini ifodalash uchun “Yo Rab” deya Yaratganga murojaat etdi. Bu misrada bilib bilmaslikka oladi bu esa tajohulu orif san’atini yuzaga keltirgan. Ikkinchi misrada shoir o‘z ma’shuqasining labini shirinlik ramzi orqali ta’riflaydi. “Yoki sevgilim asal-u shakar yalabdimikin?” shaklida daraja rivojlantiriladi. Keyingi misralarda ma’shuqaning kamondek qoshlari va uzun kipriklari biri kamon biri yoy bo‘lib oshiqning yuragini nishonga olayotganday juda chiroyli tarzda tasvirlanadi. Yo labmudur tajnislarini:

1. “Yolabmikin?” 2. “Yalabdimikin?” 3. “Yoylabdimikin?” – ma’nolarida kelganini ko‘ramiz.

Javr o‘qin jonimg‘a soqiy yozmadi,

Vasl jomidin xumorim yozmadi.

Kilki qudrat sabz xatlar ishqidin

O‘zga ish ollimg‘a go‘yo yozmadi.

Navoiyning bu tuyug‘ida oshiqning yorga sadoqati, vafodorligi, chin muhabbati aks etgan. Oshiqning “boshqa go‘zallarni ko‘rsam ham, faqat o‘sha yorga (ma‘shuqaga) oyga qaragandek hayrat va muhabbat bilan boqaman” deya aytishi ham sadoqatini yaqqol aks ettirmoqda. “Yozmadi” tajnisi tahlili: 1-misrada “yozmoq” fe‘li “otmoq” (kamon o‘qini otmoq) ma‘nosida kelgan. (Ya‘ni, jabr o‘qini jonimga otmadi). 2-misrada “yozilmoq”, “tarqab ketmoq” ma‘nosida (xumori yozmoq, ya‘ni xumori tarqamoq) ma‘nosida ishlatilgan. 4-misrada “yozmoq” (qalamla yozmoq, taqdirga yozmoq) ma‘nosida qo‘llanilgan. Bu yerda “nasib etmadi” degan ma‘no tushiniladi. Oshiq soqiyning jabr o‘qidani (ozoridan) to‘g‘ridan to‘g‘ri aziyat chekmadi, chunki uning eng katta azobi visol sharobidan xumorining tarqamaganida, ya‘ni sevgilisiga yetisha olmasligidir. Bu holatning sababi esa, ilohiy qudrat uning taqdiriga ma‘shuqaning go‘zalligining ishqidan boshqa hech narsani yozmaganidir. Oshiqning butun taqdiri shu ishq bilan bog‘liqdir.

Yo qoshingdin necha bir o‘q ko‘z tutay,

Otki, o‘trusig‘a aning ko‘z tutay.

Necha ko‘rgach o‘zga mahvashlar qoshin,

Yangi oy ko‘rgan kishidek ko‘z tutay.

Tuyuqni tushunish, undan ma‘naviy, estetik zavq olish uchun, avvalo, misralar zamiridagi ma‘nolarni obdon anglab olish kerak. Buning uchun tajnislariga ko‘proq e‘tibor qaratishimiz lozim. Agar o‘quvchi aynan bir xil shakldagi so‘zlar yoxud so‘zlar turkumidagi ma‘nolarning nozik farqlarini ajratib olaolmasa, asar o‘z vazifasini to‘la o‘tamagan, muallifning ko‘zlagan maqsadi amalga oshmay qolgan bo‘lib chiqadi. Yuqoridagi tuyuqda ham tajnis juda go‘zal ma‘nolar tashigan:

Ko‘z tutay (1) qaramoq, nigoh solmoq, tik boqmoq;

Ko‘z tutay (2) kutmoq, umid bilan kutmoq, intizor bo‘lmoq;

Ko‘z tutay (3) havas bilan boqmoq, hayrat, muhabbat bilan tomosha qilmoq kabi.

Bu tuyuqda ishqni, hayratni, go‘zallikni e‘tirof etilishini, ma‘shuqaga muhabbat va itoatni, iztirobni, ishq azobini, shavqni, vafa va sadoqatni ko‘rishimiz mumkin. Tuyuq janrini tushunish aqliy kamolotni talab etadi. Qolaversa, Alisher Navoiy tuyuqlari buyuk mutafakkirning teran aql-idrok mahsullari hisoblanadi. Tuyuq yaratish ijodkordan bilim, aql-idrok, o‘tkir zehn talab qilganidek, uni tushunish uchun o‘quvchidan ham aql-idrok, rivojlangan tafakkur darajasini talab qiladi.

Shoir tuyuqlari turkiy she‘riyatning eng yuksak namunalari ekanligi bilan ahamiyatlidir. Navoiy tuyuqlari mahoratining yangi qirralarinigina emas, har bir badiiy detaldan muhim fikrlarni bayon etish vositasi sifatida foydalanishga harakat qiluvchi san‘atkorligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Shoir qofiya uchun tajnisning turli ko‘rinishlarini ifoda etar ekan, shu vositalarni quruq so‘z o‘yini uchun emas, balki

o‘zining chuqur kechinmalarini ifoda etish maqsadiga bo‘ysundiradi. Quyidagi tuyug‘i ham buning yorqin dalilidir:

*La‘lidan jonimg‘a o‘tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin “yo” qilur.
Men vafosi va‘dasidin shodmen,
Ul vafo, bilmonki, qilmas yo qilur.*

Bu tuyuqda yoqilur tajnisi dastlabki misrada “olov yoqmoq”, ikkinchi misrada “yoy qilmoq”(egmoq), oxirgi misrasida esa “yo qiladi, yo qilmaydi” ma’nolarida go‘zal ifoda yaratgan. Tuyug‘ning botiniy mazmuni quyidagicha: Labining qizilligidan jonimga olov yoqilur; Qoshi qadni egadi; Vafo qilsa, qilmasa-da vafo haqidagi va‘dadan shod degan ma’nolarni anglatadi.

Quyida shoirning shayx-zohidlarga qarshi nafrat ifodalangan tuyug‘i bilan tanishamiz:

*Bovujud ul yuz erur gulgunasiz
Kim, ko‘runur ollida gulgunasiz.
Yuz qizilliq yo‘qturur, ey ahli zuhd,
Toki munkirsiz mayi gulguna siz.*

Bu tuyuqda sho‘x yumor, serzavq hissiyot, o‘tkir satira tig‘i yaqqol ko‘zga tashlanadi.

*Charx tortib xanjari hijron bu tun,
Qo‘ymadi bir zarra bag‘rimni butun.
Tunga borib bizni behol aylading,
Ne balolig‘ yer emish, yo rab, bu tun[1:377].*

Bu tuyuqda esa hijron, ayriliq, dard va kechaning uzluksiz og‘rig‘i aks etgan. Quyidagi tuyuqda tajnisi mulaffaqni ko‘rishimiz mumkin:

*O‘tkali ul sarvi gulruxsoridin,
Yo‘q xabar ul sarvi gul ruxsoridin.
Hajridin bog‘ ichra berur yodima
Qomatidin sarvu gul ruxsoridin.*

Birinchi misrada tik qomatli va gul yuzli yorning yonidan o‘tgani – degan ma‘no tushinilmoqda. Ikkinchi misrada esa sarvdek qomatli gul yuzli yorning yuzidan (ya‘ni yordan) xabar yo‘q deyilmoqda. Keyini misrada bog‘ ichi yodimga tushadi (ko‘zim oldida gavdalanadi) ma‘nosi anglashiladi. So‘ngi misrada esa yanada aniqroq ifodalanib, bog‘dagi sarv yorning qomatini, gul esa uning yuzini eslatadi, yodimga soladi degan go‘zal ma‘noni tushunishimiz mumkin. Alisher Navoiy tuyuqlarida tajnis san‘ati nafaqat qofiyaviy bezak vazifasini bajaradi, balki she‘rning g‘oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtiruvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan shoirning tuyuqlari turkiy mumtoz she‘riyatda mazkur janrning rivojlanishi va takomillashishida muhim o‘rin egallaydi.

*Tig‘i ishqing yorasidur butmagan,
Dardini har kimga aytib butmagan.
Hajr sahrosidur ohim o‘tidin,
Anda gul yoxud giyohe butmagan.*

Bu tuyuq “butmagan” tajnisi asosida qurilgan bo‘lib, ilk misrasida “tuzalmagan”, ikkinchi misrasida “tugatmagan”, oxirgi misrasida bitmagan (unib

chiqmagan) ma'nosida ifoda etilgan. Tuyuqda lirik qahramon yorning ishq tig'i yuragini bitmaydigan yaraga aylantirganini va yaralangan qalb egasi dardini hech kimga aytib tugatmaganini, ayriliq sahrosi oshiq ohi olovidan yonganini u yerda esa gul yokim giyoh o'smasligini so'zlaydi.

Navoiyning 11 tuyug'ida qofiyalanish *a-a-b-a* tarzida. Qit'a-tuyuqqa xos xususiyat saqlangan tuyuqlari esa quyidagilar:

Vah, qachonga tegru ishqing kojidin

Ko'zuma har lahza o't chaqilg'usi.

Basdurur ko'nglumda ishqing yoqma o't,

Kim xaroratul ham o'tcha qilg'usi.

Bu to'rtlikda shoir ishqni oddiy tuyg'u sifatida emas, balki inson ruhiyatini tamomila egallab oluvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Birinchi misrada oshiqning sabr kosasi tugab borayotgani, ishq azobi vaqt bilan emas, balki mavjudlik darajasida sezilayotgani ifodalanadi. Ikkinchi misrada "ko'zga o't chaqilishi" obrazi orqali ichki iztirob tashqi idrokka ko'chib o'tgani, ya'ni oshiqning butun borlig'i ishq bilan qamrab olingani ifodalanadi. Bu holatda inson tashqi olamni emas, balki faqat ishq orqali shakllangan ichki kechinmalarni idrok etadi. Uchinchi misrada esa oshiq ishqni yanada orttirishni emas, balki uni to'xtatishni so'raydi. Bu esa ishqning zavq emas, balki chidab bo'lmas darajadagi azobga aylanganini anglatadi. So'nggi misrada "xarorat" tushunchasi orqali ishqning uzluksiz davom etuvchi ruhiy yonish holati ekanligi ta'kidlanadi. Bu yerda ishq bir lahzalik emas, balki vaqt davomida cho'ziladigan iztirob sifatida talqin etiladi. Ya'ni bu tuyuqda ilohiy ishq nazarda tutilgan.

Ul pari ishqida bu devonani,

Eyki istarsen, kelib gulxanda ko'r.

Bir qadah ul gulni xandon ayladi,

Ey ko'ngul, nazzora qil, gul xanda ko'r.

Bu qit'a-tuyuq tajnisi "gulxanda ko'r" ikkinchi misrada o'z ma'nosida, "Ul parining ishqida yongan oshiq, devonani istasang agar gulxanda - o'tda ko'r, sevgida qanday yonayotganini kelib ko'r", – deya ochiq aytadi. Uchinchi misrada bir qadah ilohiy sevgi mayi yoki ko'ngliga yoquvchi bir so'z uni shod etdi deydi. To'rtinchi misrada esa shoir o'z ko'ngliga murojaat qilib, "Ey ko'ngul, bir nazar sol-da gulni xanda – kulganini, shod bo'lganini ko'r", – deya tugatadi. Tajnising nihoyatda nafosat bilan ishlatiganligiga guvoh bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy ijodida tuyuq janr sifatida o'zining yuksak darajasiga chiqdi. Turkiy tilning naqadar boyligini har bir tuyug'ida teran ma'noni aks ettirish bilan isbotladi. Kelib chiqishi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladigan bu janrning janr xususiyatlarini aniq belgilab berdi. Uning bu 13 tuyug'i xalqimizning o'lmas xazinasini boyitdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 377-378
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1967.
3. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. – Toshkent: Fan, 1989.

4. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Ilmiy tatanqidiy tekst – Toshkent: Fan nashriyoti, 1961. – 14b
5. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. –Toshkent, “G’.G’ulom”, 1976. – 166-177
6. <tps://scientific-jl/com/luch/>
7. <https://doi.org/10.5281zenodo.15554684>
8. Tilayev, E. R., Sanayev, M. Y., Garachshenko, V. V., & Ziganshina, K. R. (2026). Structural and functional analysis of the models of professional training of teachers to work with technologies for the development of educational abilities of children with ASD in the BRICS countries. *ARPHA Proceedings, 11*, 749-761.
9. Mirsanjar, Sanayev. “Review of the Ghazal” Noma” by Abdulla Oripov.” *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.7*: 137-140.